

## GENDER LINGVISTIKASI VA NUTQ TAFOVUTLARI

Eshqobilova Farida Xusniddinovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 2-bosqich talabasi  
[faridaeshqobilova28@gmail.com](mailto:faridaeshqobilova28@gmail.com) telefon raqam(+998910143797)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gender lingvistikasi, lingvistikada genderning ahamiyati, jins tafovutining nutqqa ta'siri, lingvistik gendereologiyaning asosiy masalari va ayrim tillarda mavjud bo'lgan erkak va ayol nutqini farqlovchi vositalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender, lingvistik gendereologiya, erkak va ayol nutqi, tafovut

### KIRISH

Hozirgi kunda amaliy lingvistikaning rivojlanayotgan sohalaridan biri bu gender lingvistikasidir. Gender lingvistikasi yoki lingvistikada genderologiya sohasi nafaqat tilshunoslikda, balki hayotimizda ham juda muhim o'rinn tutadi. „Gender” temini birinchi bo'lib, 1968-yilda kaliforniyalik olim Stoller tomonidan fanga kiritilib, umumiy qarashlarga ko'ra tabiattan erkak va ayol jinsini ifodalash uchun ishlataladi. Shu o'rinda West and Zimmermanning genderga bergan ta'rifini aytib o'tish lozim: „Gender bu biz tug'ilgan yoki bizda bor narsa emas, balki biz qilgan, biz amalga oshirgan harakatimizdir (West and Zimmerman 1987)” Gender omili shaxsiyatning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u jinsn nafaqat biologik subyekt sifatida, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilangan aqliy tuzilma sifatida ham o'z ichiga oladi. Genderologiya fani dunyo miqyosida tan olinib, ko'plab sohalarda dolzarb masalaga aylanganidek tilshunoslik fanida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyi, gender lingvistikasi asosan nimani qamrab oladi?, Jins va tilshunoslik bir-biriga qay jihatdan bog'liq?, Gender lingvistikasi qanday fan? kabi savollar paydo bo'ladi. Gender lingvistikasini turli olimlar uzoq yillar davomida o'rgangan bo'lsada, 1922-yilda O.Espersen tilning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi fundamental asarining butun bir bobini ayol lingvistik kompensatsiyasining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlagan. Shuningdek, Esperson erkak va ayol nutqining xususiyatlarini o'rganib chiqib, erkaklarning til kompensatsiyasini ham o'rnatdi. Espersonning fikriga ko'ra ayol va erkaklar turli lug'at va til birliklaridan foydalanadi. Demak, gender lingvistikasi erkak va ayol nutqining farqini, aynan qaysi jihatdan tafovutlanishi o'rganadigan fan ekan.

### ERKAK VA AYOL NUTQI QANDAY SABABLARGA KO'RA FARQLANADI?

Penelope Eskert va Sally McCollinning fikriga ko'ra: „Go'daklikdan qizaloq va bolakaylor turlicha tarbiyalanadi va turlicha muloqotga kirishadilar (Language and Gender) Darhaqiqat, Oila va ijtimoiy jamiyatda nutq qanday bo'lsa, insonning ijtimoiy so'zlashuv uslubi ham xuddi shunday tarzda shakllanadi. Fikrimcha, erkak va ayol nutqining shakllanishi aynan bolalik vaqtidan boshlanadi, sababi oilada o'g'il bolalarga jiddiy, kattalardek va kuchli jins vakiliga qilinadigan munosabat bildirilsa, qizlarga yumshoqlik, nazokat va muloyimlik bilan muomala qilish 4-5 singdiriladi. Natijada, ularning til va nutq uslubi, aynan ularning jinsiga monand shakllanadi.

Ayol va erkak nutqini farqlovchi yana bir muhim omil shuki, erkaklar aqliy qobilyatiga tayanib so'zlasa, ayollar ko'p hollarda hissiyotlarga berilib, hissiy ustunlik bilan muomalaga

kirishadi. Shu sababli, biz kundalik hayotimizda ham ayollarning „baxt, shodlik, muhabbat, mehr yoki ismlarga bek, jon” qo’shimchalarini qo’shib so’zlaganiga guvoh bo’lamiz. Erkaklar esa kundalik hayotda „muammolar, tashvishlar, yechim, iqtisodiy masalar”ni keltirib o’tishi, hissiyotga berilmay, gapirishi aynan ul fggning nutqiy tafovutini ko’rsatib beradi.

## **GENDER LINGVISTIKASI QANDAY MASALALARINI O’Z CHIGA OLADI?**

- 1.Gender grammatikasi
- 2.Rasmiy va norasmiy so’zlashuv uslublari
- 3.So’zlashuv ohangi va mimika

Gender grammatikasi gender lingvistikasining asosiy tarmoqlaridn biri bo’lib, bu asosan boshqa tillarda to’liq namoyon bo’ladi. Sababi, Ispan, Ingliz, Fransuz, Hind tillarida ayrim kasbiy so’zlar, hayvonlar va olmoshlar jinsga qarab farqlanadi va ishlatiladi. Buni biz Ispan va Ingliz lug’ati va grammatik tuzilishida ko’rib chiqadigan bo’lsak, Ispanlar u 3-shaxs ko’rsatkich olmoshini jinsga qarab ishlatadi; el- u(erkak kishiga nisbatan), ella- u(ayol kishiga nisbatan). Bundan tashqari ispan lug’ati misolida ham namuna keltirishimiz mumkin: amigo-do’st(erkak), amiga-do’st(ayol). Ko’rshimiz mumkinki, o va a harflari ham grammatik, ham lug’at jihatdan lingvistikada genderologiyaning ahamiyatni ochib bermoqda. Ingliz tili misolida ham ko’radigan bo’lsak, mistress- ayolga nisbatan qo’llniladigan so’z bo’sa buning erkakka n;hh lisbatan qo’llaniladigan ekvivalenti master so’ziga mos tushadi.

Gender lingvistikasida norasmiy va rasmiy, stanard so’zlashuv usullari myjud bo’lib, erkaklar asosan norasmiy(slang)ko’cha tilidagi so’z va iboralarni ishlatishar ekan. Ayollar esa, aksincha, rasmiy, badiiy va standart uslubda gaplashishi Evropa olimlari tomonidan tasdiqlangan. Bunga misol qilib ingliz tilida erkaklarning bir-birini BRO, DUDE deb chaqirishi, ayollarning esa DEAR, FRIEND deb atashlari yaqqol misol bo’la oladi. Shu bilan birga, erkaklar o’z nutqida ko’p so’kinish va haqorat so’zlarni ishlatishini, ayollar esa bunday haqoratlarni kam hollrda ishlatishi gender lingvistikasida asosangan.

Yana shuningdek, erkak va ayol nutqi va so’zlashuv uslubida yaqqol ko’rinadigan far mavjud bo’lib, bu ton va mimikadir. Yaxshilab e’tibor berib qarasangiz, erkaklar baland ohangda,bir xil yuz qiyofasida o’z fikrlarini ifodalaydilar, ayollar esa past ohangda, turli mimikalar bilan ayniqsa, hissiyotga jo’shib ketgan paytlarda har xil yuz qiyofasida so’zlashdiar. Consider our voices. On average, men’s vocal tracts are longer than women’s, yielding a lower voice pitch. (Language and Gender by McCollin and P.Eskert)

## **FIKR VA MULOHAZALAR**

FEMALE	MALE
STANDART SPEECH	SLANG AND INFORMAL
EMOTINAL	RATIONAL
DIFFIRENT MIMICS WITH LOW TONE	THE SAME MIMICS WITH HIGH TONE
GRAMMAR DIFFIRENCE- OHA	GRAMMAR DIFFIRENCE- OH

Bu jadvalda gender lingvistikasining asosiy farqlari qisqacha keltirib o’tilgan.

## **XULOSA**

Amaliy tilshunoslikning rivojlanib kelayotgan sohalaridan biri bo’lgan gender

lingvistikasi, erkak va ayol nutqida, ularning so'zlashuv uslubida, lug'at boyligida, grammatik strukturasida mavjud bo'lgan farqlar, tafovutlarni o'rganadigan bo'lim bo'lib, biz yuqorida keltirilgan dalil va misollarni kundalik hayotimizda ko'p bora ishlatilganini inkor etmaymiz, albatta. Inson tabiatdan ikki jinsda yaratilgan va uning jinsi, uning ijtimoiy holati, nutqi va tiliga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'yaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Language and gender Sally McCollin, Penelope Eskert
- 2.Handbook of language and gender
3. <https://www.myscience.uz/index.php/linguistics>
- 4.www.wikipedia.org